



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

QODIROV JASURBEK SHAROFITDINOVICH

«O'zbekiston temir yo'llari» AJda davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning iqtisodiy-moliyaviy holati

Ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda o'z aholisiga munosib turmush darajasini ta'minlash yo'ldan borayotgan har qanday davlatdan investitsiyalarni uzluksiz jalb qilish va yuqori likvidlikka ega bo'lgan investitsiya loyihalarni amalga oshirish zaruriyati dolzarb masala hisoblanadi. Jahon tajribasiga ko'ra, keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish samaradorligi investitsiyalarni, xususan, turli sohalardagi investitsiya loyihalarini samarali amaliyotga tadbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. Investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda investitsiya loyihalari to'g'risida ko'plab bahs-munozaralar mavjud. Investitsiya loyihalariga oid tushunchalarning tobora keng qo'llanilishi, avvalombor, ularning iqtisodiy mohiyatini anglab yetish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan hamda mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyalariga asoslanadi. Bu esa raqobatbardosh investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

"Investitsiya loyihasi" tushunchasi ikki xil mazmunda talqin etiladi¹:

¹ <https://topuch.com/mavzu-investitsiya-loyihalarining-moliyaviy-va-iqtisodiy-samar/index.html>

- muayyan maqsadlarga erishishni (ko‘zlangan natijalarni hosil qilishni) ta’minlovchi qandaydir faoliyatlar yig‘indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda "xo‘jalik tadbiri", "ish (ishlar yig‘indisi)", "loyiha" terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi.

- qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to‘plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda "investitsiya loyihasi" ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo‘llaniladi. "Loyiha" tushunchasi esa birinchi mazmun bo‘yicha tushuniladi.

Investitsiya loyihasi bu - uning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayoni, shuningdek, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qarash mumkin. Demak, yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirish asosida, investitsiya loyihasini o‘ziga xos faoliyat turi deb hisoblash mumkin. Uning bir qancha o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lib, loyihani boshqa turdagi faoliyatlar va tadbirlar bo‘yicha xususiyatlaridan alohida ajratib turadi. Ular quyidagilar:

1. Loyiha maqsadlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Loyiha maqsadining aniq belgilanishi ushbu loyihaning samarali amalga oshishiga yordam beradi. Agar loyihaning dastlabki maqsadlaridan voz kechilsa, bu loyihaning umuman amalga oshmay qolishiga, loyiha "yakuni"ga, "tugallanmay qolishi"ga, "so‘nishi"ga sabab bo‘ladi. Bunday vaziyatlarning oldini olish maqsadida so‘nggi yillarda loyiha maqsadlarini shakllantirish va unga erishishning bir qator uslublari ishlab chiqilgan bo‘lib, loyihalarni moliyalashtirishni strategik rejalashtirishda juda qo‘l keladi.

2. Loyiha aniq (odatda oldindan belgilangan) muddat davomida amalga oshishi lozim. Ma’lumki, loyihaning boshlanishi va tugallanishi amal qiladi. Qachonki, loyihada ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlarga erishilsa, shundagina loyiha

tugallangan hisoblanadi. Bunda loyihani samarali amalga oshirish kafolati bo'lib, belgilangan muddat davomida kerakli resurslarni va harakatlarni optimal taqsimlash hisoblanadi.

3. Loyihada o'zaro bog'liq harakatlarning bajarilishini muvofiqlashtirish lozim. Loyiha o'z mohiyatiga ko'ra murakkab hisoblanib, bunda tadbir va faoliyatlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ba'zi faoliyatlar parallel ravishda bajarilsa, ba'zilari qat'iy ravishda ketma-ket bajarilishi lozim, aks holda, loyiha doirasida iqtisodiy risk yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

4. Loyiha o'ziga xos bo'lishi lozim. Har bir loyiha betakror xususiyatlarga ega. Garchi o'xshash loyihalarni amalga oshirish uchun bir xil faoliyatlar bajarilsada, aynan bir xil loyihalar amaliyotda kam uchraydi.

Tadqiqotlarga ko'ra, har qanday investitsiya loyihalarida quyidagi 3 ta chegara amal qiladi:


- vaqt bo'yicha chegaralanishi;
- pul resurslari bilan chegaralanishi;
- texnik vazifalar bilan chegaralanishi (ishlar va operatsiyalarning turlari va sifatiga bo'lgan talab, investitsiya faoliyati obyektining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari).

Har qanday DXSh loyihalari hayotiy siklining amal qilish bosqichlarida budjet samaradorligini aniqlash muhim vazifa hisoblanib, bu transport infratuzilmasini rivojlantirish jarayonini ham o'z ichiga qamrab oladi. Budjet samaradorligi ko'rsatkichlariga qarab, DXSh asosidagi loyihalarni amalga oshirishda davlat hamkor (davlat) xususiy sherik (xususiy biznes) bilan munosabatlarda o'z strategiyasini shakllantiradi. Shuningdek, davlat bu jarayonda loyihalarga investitsiya yukini oshirish, shu orqali xususiy biznes yukini kamaytirish bilan birga loyihalarning jozibadorligini barqarorlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biroq, hozirgi kunda DXSh loyihalariga davlat investitsiyalari transport infratuzilmasini rivojlantirishning budjet samaradorligini baholashga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha DXSh loyihalari budjet samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish

ham davlat, ham xususiy biznes xarajatlarini optimallashtiradi, risklarni kamaytiradi hamda xususiy biznes uchun loyihalarning jozibadorligini oshiradi². Shu bilan birga, loyihalash-tadqiqot va qurilish-montaj tashkilotlari, shuningdek, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi tashqi korxonalar faoliyatini hisobga oladi.

DXSh loyihalarini amalga oshirishda transport infratuzilmasi obyektlarini loyihalashtirish, qurish hamda rekonstruksiya qilish maqsadida zarur xizmatlar va resurslarni yetkazib beruvchilar tomonidan to‘lanadigan soliq to‘lovlari va sug‘urta badallarini hisoblashning uslubiy yondashuvlari, shuningdek, amalga oshirilgan investitsion loyihalarning iqtisodiy-moliyaviy holatini tahlil qilishdan iborat (8-rasm).



8-rasm. Transport qurilish loyihasi hayotiy siklining kengaytirilgan modeli³

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab tadbirlar yig‘indisini o‘zida jamlovchi huquqiy-boshqaruv, texnik va moliyaviy hisob hujjatlari to‘plamiga investitsiya loyihasi deyiladi.

Shuningdek, investitsion loyihalarni tuzish va amalga oshirishda bir qator tizimli bosqichlar amal qiladi:

- investitsion g‘oyani shakllantirish;

²Волков Б. А. Оценка экономической эффективности инвестиций и инноваций на железнодорожном транспорте: Учебное пособие [Текст] / Б. А. Волков, А. А. Гавриленков, А. С. Каверин, А. В. Марцинковская, В. Я.Шульга // Под ред. Б. А. Волкова. – Москва. – УМЦ ЖДТ. – 2009. – 152 с.

³Добрин А. Ю. Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве. ДИССЕРТАЦИЯ/ Москва – 2016 г. 157с.

- investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsion loyihani texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- obyektни ishga tushirish va investitsion loyiha (iqtisodiy ko'rsatkichlar)

monitoringini olib borish;

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va "loyiha"lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shu bilan birga uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag'larni safarbar etishga asoslanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash texnik, texnologik, moliyaviy, tarmoq yoki hududiylik xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan holda yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- loyihani uning butun hayot sikli davomida ko'rib chiqish;
- pul oqimlarini modellashtirish, bunda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq barcha pul tushumlari va hisobot davridagi turli valyutalarni ishlatish ehtimolligini hisobga olgan holdagi xarajatlar kiritiladi;
- ishonchlilik va maksimum samara.

Investitsiya loyihasining samaradorligini baholash esa quyidagilarga asoslanadi⁴:

- moliyaviy baholash;
- iqtisodiy baholash;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl);
- moliyaviy baholanishning koeffitsiyentlari;
- foydaning oddiy buxgalteriya normasini aniqlash;
- pul mablag'lari harakatining hisoboti (4-shakl);

⁴ <https://topuch.com/mavzu-investitsiya-loyihalarining-moliyaviy-va-iqtisodiy-samar/index.html>

- buxgalteriya balansi (1-shakl);
- oddiy (statistik) usullar;
- diskontlashga asoslangan usullar;
- qoplanish muddatini aniqlash;
- sof diskontlangan daromad (sof joriy qiymat);
- foydaning ichki me'yori;

Investitsiya loyihasining juda ko'p afzalliklari mavjud bo'lsa-yu, lekin quyidagilar ta'minlanmasa, uning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq emas:

- loyiha mahsulotining sotilishi evaziga olingan daromadlar qo'yilgan investitsiya mablag'larini qoplamasa;
- investitsiyalarning rentabelligini ta'minlovchi foyda firmaning xohishi darajasidan past bo'lsa;
- investitsiyalarning qoplash muddati firma uchun muvofiq kelgan davrga mos kelmasa.

Investitsion jarayonlardagi bunday natijalarga erishishning haqiqiylikini aniqlash real aktivlarga qo'yilgan mablag'lar bo'yicha har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunday baholashni o'tkazish ba'zida qiyin vazifa hisoblanadi, chunki unda bir qator muhim omillar ta'sirini hisobga olish talab etiladi:

birinchidan, investitsion xarajatlar faqat bir marotaba yoki uzoq vaqt davomida bir necha marotaba amalga oshirilishi mumkinligi;

ikkinchidan, investitsiya loyihasini amalga oshirishdan natijalar olish davrining davomiyligi va uzoq ekanligi;

uchinchidan, uzoq muddatli operatsiyalarni amalga oshirish investitsiyalarning barcha jihatlarini baholashda noaniqlik va risklarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligi.

Investitsiya loyihasini ahamiyati va uning obyektiv zarurligi shundan iboratki, loyiha qo'yilgan maqsadga erishish uchun odatda, resurslar va muayyan vaqt bilan cheklangan sharoitda investorlar qiziqishlarini o'zida aks ettira olishi kerak. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari asosida aynan turli

obyektlarga uzoq muddatga kapital mablag'larni qo'yishning maqsadga muvofiqligini aniqlash mumkin hamda qo'yilgan sarmoyalar kelajakda foyda keltirishi va o'zini to'liq qoplashini aniqlash mumkin.

Bunda investitsiya loyihasini moliyaviy-iqtisodiy baholashning vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya loyihasi tashabbuskorlarining moliyaviy holatini tahlil qilish va baholash;
- investitsiya loyihasida pul oqimlarini tahlil qilish va baholash;
- oddiy va diskontlash usullari asosida loyiha samaradorligini aniqlash;
- loyiha risklarini tahlil qilish, ichki va tashqi omillarni baholash;
- investitsion qarorlar qabul qilish.

bu yerda, boshlang'ich investitsiyalar hamda investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olingan yillik pul tushumi summasi e'tiborga olinadi.

Yuqorida ta'kidlangan uslubiyot orqali transport infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishdagi soliq to'lovlari va sug'urta badallari tahlili amalga oshiriladi. Bunda matematik va statistik tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Ushbu tadqiqot usulining asosiy masalalaridan biri - o'rganilayotgan hodisalarning makonda o'zgarish va rivojlanish jarayonini tadqiq qilishda vaqtli qatorlarni tuzish hamda tahlil qilishdir. Iqtisodiy hodisalarning makonda o'zgarishini ifodalayotgan sonlar ketma-ketligini kuzatish vaqtli qator deb, ifodalaniladi.

Vaqtli qator ko'rsatkichlari barqaror va xususiy tasodifiy o'zgarishlarga ega bo'ladi. Bunda xususiy tasodifiy o'zgarishlarni oldini olish hamda barqaror o'zgarishlarni aniqlash uchun u yoki bu usullar bilan taqqoslanadi. Taqqoslangan qatorlar orqali ayrim korxonalarni, tarmoq va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ba'zi muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ko'plab vaqtli qatorlarni tahlil qilishga oid iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanlanma to'plam doirasida ma'lumotlar qayta ishlanadi. Shuningdek, tajribalar guruhini ta'riflash uchun qilingan har qanday urinish, mutloq rasmiy va

subyektiv bo'ladi. Shuning uchun ko'pchilik hollarda hodisaning qandaydir bir tomonini ehtimol ta'riflash imkoniyatini aniqlash qiyin.

Vaqtli qatorlarning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- a) berilgan sharoitda kuzatilayotgan jarayonni qayta kuzatish mumkin emas;
- b) odatda kuzatilayotgan qatorlar, kuzatilayotgan tanlama hajmiga ko'ra juda chegaralangan bo'ladi.

Shuningdek, vaqtli qatorlar tahlilida hisoblanadigan ko'rsatkichlar quyidagilar:

1. Mutloq bazisli qo'shimcha o'sish:

$$\Delta Y_i^b = Y_i - Y_1$$

2. Mutloq zanjirli qo'shimcha o'sish:

$$\Delta Y_i^{zan} = Y_i - Y_{i-1}$$

3. O'sishning bazis koeffitsiyenti:

$$K^b = Y_i / Y_1$$

4. O'sishning zanjirli koeffitsiyenti:

$$K^{zan} = Y_i / Y_{i-1}$$

5. O'sish sur'ati:

$$T_{o'sish} = K^b * 100\%$$

6. Qo'shimcha o'sish sur'ati:

$$T_{qo'sh} = T_{o'sish} - 100\%$$

7. Qo'shimcha o'rtacha mutloq o'sish:

$$\Delta Y_{o'rtacha} = (Y_{max} - Y_{min}) / (n - 1)$$

8. O'rtacha o'sish sur'ati:

$$T_{o'sish}^{o'rtacha} = (Y_{max} / Y_{min})^{\frac{1}{n-1}} * 100\%$$


9. O'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati:

$$T_{qo'sh}^{o'rtacha} = T_{o'sish}^{o'rtacha} - 100\%$$

Mutlaq qo'shimcha o'sish yoki kamayish – har qaysi keyingi davr darajasidan boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

O'sish yoki kamayish koeffitsiyenti yoki sur'ati – har qaysi keyingi davr darajasi boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan necha marotaba katta yoki kichik ekanligini yoki qancha foiz tashkil etishini ko'rsatadi. Qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati ham ikki usulda aniqlanishi mumkin. Birinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan boshlang'ich davr darajasi ayirilib, 100 ga ko'paytiriladi va boshlang'ich davr darajasiga bo'linadi.

Yuqoridagi formulalar asosida «O'zbekiston temir yo'llari» AJda amalga oshirilgan investitsion loyihalarning iqtisodiy-moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning tahlili amalga oshiriladi. Bunda «O'zbekiston temir yo'llari» AJda tomonidan taqdim qilingan 2012-yildan 2022 yilgacha bo'lgan ma'lumotlari asos qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra «O'zbekiston temir yo'llari» AJda amalga oshirilgan investitsion loyihalarning qiymati 2013-yilga nisbatan 2014-yilda eng yuqori qo'shimcha o'sish (181,89 mln.dollar) tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq, 2017-yilga nisbatan 2018-yilda esa eng quyi (206,85 mln.dollar) ko'rsatkich qayd etilgan. (9-rasm)




9-rasm. Mutlaq zanjirli qo'shimcha o'sish⁵

Bu shundan dalolat beradiki, har yili amalga oshirilgan investitsion loyihalar doirasida samaradorlik ko'rsatkichi ortib borgan. Ko'rsatkichlarning mutlaq bazisli qo'shimcha o'sish va kamayish tendensiyasi tahliliga ko'ra, 2012 yil bazis davri


⁵ Muallif ishlanmasi

sifatida olingan va barcha vaqtli qatorlar tahlili shu yilga nisbatan amalga oshirilgan. Natijada 2012 yilda amalga oshirilgan investitsion loyihalar miqdoriga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich 2016-yilda (496,77 mln.dollar) kuzatilgan (10-rasm).



10-rasm. Mutlaq bazisli qo‘shimcha o‘shish⁶

2012 yilda amalga oshirilgan investitsion loyihalar miqdoridan kamayib ketgan yil. Bu esa o‘z navbatida yildan yilga «O‘zbekiston temir yo‘llari» AKda amalga oshirilgan investitsion loyihalar o‘sib borayotganini ifodalaydi.



11-rasm. O‘shishning bazis koeffitsiyenti⁷


Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, amalga oshirilgan investitsion loyihalar 2012 yilga nisbatan 2016 yilda 2,49 marotaba o‘sgan. 2013 yil va 2022 yillarda esa bu

⁶ Muallif ishlanmasi

⁷ «O‘zbekiston temir yo‘llari» AK tomonidan taqdim qilingan ma’lumotlar orqali mualli ishlanmasi


ko'rsatkich 1,46 marta o'sish koeffitsiyentiga ega bo'lgan. Ushbu qiymatlarni avvalgi yillarga nisbatan solishtirma tahlilini ushbu grafik orqali ko'rish mumkin.

«O'zbekiston temir yo'llari» AJda amalga oshirilgan investitsion loyihalar 2012 yildan boshlab 2018 yilgacha kamayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, 2019 yildan 2022 yilgacha esa barqaror tebranish vujudga kelgan.



12-rasm. O'sishning zanjirli koeffitsiyenti⁸

Natijalar bevosita 2022 yilga kelib kamaygan, bu shundan dalolat beradiki, investitsion loyihalarni kiritishga qo'shimcha strategik chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.



13-rasm. «O'zbekiston temir yo'llari» AKda amalga oshirilgan investitsion loyihalarning qo'shimcha o'sish sur'ati⁹

⁸ Muallif ishlanmasi

⁹ Muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalariga ko'ra, qo'shimcha o'sish tendensiyasi ijobiy tebranishga ega ekanligini ko'rish mumkin. «O'zbekiston temir yo'llari» AJda amalga oshirilgan investitsion loyihalarning eng yuqori qo'shimcha o'sish sur'ati 2016 yilda kuzatildi, 2012 yilga nisbatan esa 148,55 foiz qo'shimcha o'sish bo'lganini ifodalamoqda (13-rasm). Shuningdek, 2012-2022-yillar oralig'ida o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 36,2 foizni tashkil etdi. Bu o'z navbatida yuqoridagi barcha tendensiyalarda kuzatilganidek, «O'zbekiston temir yo'llari» AJda amalga oshirilgan investitsion loyihalarning qiymati ijobiy-barqaror o'sish ko'rsatkichiga ega ekanligini ko'rsatmoqda.